



UO'K 81'42

PRAGMATIKA BORASIDAGI NAZARIY QARASHLAR
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА ПРАГМАТИКУ
THEORETICAL APPROACHES TO PRAGMATICS

Yusupova Sabohat A'zamjonovna

Farg'ona davlat universiteti, f.f.b.f.d(PhD)

s.a.yusupova@pf.fdu.uz +998916666394

ORCID ID 0000-0003-4883-076X

Turdiboyeva Xojiyaxon Bahodirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

ikromovaxojiyaxon@gmail.com +998939736060

ORCID ID 0009-0007-0977-7907

Annotatsiya Ushbu maqola pragmatikaning asosiy nazariy tamoyillarini va uning badiiy matndagi o'рни haqida batafsil ma'lumot beradi. Pragmatika tilning amaliy qo'llanilishi, kontekstual ahamiyati va kommunikatsiyadagi rolini o'rganadi. Maqolada Ch. Morris, Levinson, Mey va Yule kabi tilshunoslarning pragmatika haqidagi yondashuvlari tahlil qilingan. Shuningdek, o'zbek tilshunosligidagi pragmatik yondashuvlarning badiiy matnlarda qanday qo'llanilayotgani M. Hakimovning "O'zbek pragmalingsvistikasi asoslari" asari misolida ko'rib chiqildi. Maqolada pragmatikaning deysis, implikatura, presuppozitsiya va nutq aktlari kabi muhim tushunchalarini o'rganish orqali, uning tilshunoslik va badiiy matnlar tahlilidagi ahamiyati yoritilgan.

Аннотация Данная статья предоставляет подробный анализ основных теоретических принципов прагматики и её роли в художественных текстах. Прагматика изучает практическое использование языка, его контекстуальное значение и роль в коммуникации. В статье анализируются подходы к прагматике таких лингвистов, как Ч. Моррис, Левинсон, Мей и Юль. Также рассматривается, как прагматические подходы применяются в художественных текстах в узбекском языкознании на примере работы М. Хакимова «Основы узбекской прагмалингвистики». Исследование фокусируется на ключевых понятиях прагматики, таких как дейксис, импликатура, предпосылка и речевые акты, подчеркивая их значение в лингвистическом и литературном анализе.

Abstract This article provides a detailed examination of the main theoretical principles of pragmatics and its role in literary texts. Pragmatics studies the practical use of language, its contextual significance, and its role in communication. The article analyzes the approaches to pragmatics of linguists such as Ch. Morris, Levinson, Mey, and Yule. It also explores how

pragmatic approaches are applied in literary texts within Uzbek linguistics, using M. Hakimov's work "The Foundations of Uzbek Pragmatics" as an example. The study focuses on the key concepts of pragmatics, including deixis, implicature, presupposition, and speech acts, emphasizing their importance in linguistic and literary analysis.

Kalit so‘zlar: pragmatika, deiksis, implikatura, presuppozitsiya, nutq aktlari, badiiy matn, tilshunoslik, sintaksis, semantika, semiotika

Ключевые слова: прагматика, дейксис, импликатура, предпосылка, речевые акты, художественный текст, языкознание, синтаксис, семантика, семиотика.

Keywords: pragmatics, deixis, implicature, presupposition, speech acts, literary text, linguistics, sintaksis, semantics, semiotics.

KIRISH

Pragmatika — bu tilning amaliy qo‘llanilishiga, uning muloqotda qanday ishlatilishiga va kommunikativ jarayonda o‘zaro aloqalarga qanday ta’sir qilishiga qaratilgan lingvistik soha. Pragmatikaning asosiy tadqiqot obyekti — bu so‘zlarning ma’nosi, lekin bu ma’no tilshunoslikning kontekstual yoki amaliy jihatlaridan kelib chiqqan holda o‘rganiladi. Pragmatika tilni anglash va qo‘llashda tilning kontekstual xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi. Bu yerda til o‘zgaruvchan va faol, muloqotning aniq shartlariga mos keluvchi vosita sifatida ko‘riladi.

«Pragmatika» (yunoncha *pragma* — ish, harakat) aslida falsafiy tushuncha sifatida paydo bo‘lgan. Bu sohaning rivojlanishi esa XX asrning 30-yillariga borib taqaladi.

Ch. Morris pragmatika tushunchasini tilshunoslikka kiritgan olim hisoblanadi. U pragmatika tilni amaliy qo‘llanishini o‘rganish, ya’ni tilning kommunikativ va amaliy funksiyalarini tadqiq qilishni maqsad qilgan. Morris pragmatikani «belgilarni o‘rganishning amaliy qismi» deb ta’riflagan. U lingvistikada *semiotik* (belgilar va ularning ma’nolari bilan bog‘liq ilm) deb nomlangan fan doirasida tilning uchta asosiy jihatini ko‘rsatgan:

- **Sintaksis** — tilning tuzilishi.
- **Semantika** — so‘zlarning va gaplarning ma’nolari.
- **Pragmatika** — tilning kontekstda qo‘llanilishi, ya’ni muloqotda qanday ishlatilishi.

[4,6]

Morrisning pragmatika haqidagi qarashlari uning «semiotik» yondashuvi bilan chambarchas bog‘liqdir, chunki u tilning asosiy elementlarini (belgilar, ma’no, va ular bilan bog‘liq aloqalarni) o‘rganish bilan shug‘ullangan.

XX asrning 60-70-yillaridan boshlab, pragmatika tilshunoslikda yanada mustahkam o‘rin egalladi. Pragmatika til o‘rganishda faqat ma’no va grammatikani emas, balki muloqot jarayonidagi barcha aspektlarni (so‘zlashuvchilar, ijtimoiy kontekst, hurmat ko‘rsatish, va boshqalar) inobatga oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ko‘plab lingvistlar pragmatikaning ta’riflarini taqdim etgan, jumladan Levinson (1983), Mey (1993), Yule (1996), Tomas (1995), Cutting (2002) va Huang (2007). Levinson (1983) pragmatikaning uchta asosiy ta’rifini beradi:

(a) Pragmatika – til va kontekst o’rtasidagi bog’lanishni o’rganish, bu tilni tushunishni ta’minlash uchun asos bo’ladi.

(b) Pragmatika – til foydalanuvchilarining jummalarni ular uchun mos bo’lgan kontekst bilan moslashtirish qobiliyatini o’rganadi.

(c) Pragmatika – deiksis (kontekstdan bog’liq bo’lgan so’zlar, masalan, "bu yerda" yoki "hozir"), implikatura (aytilmagan, lekin tushunilgan ma’nolar), presuppozitsiya (farazlar), nutq harakatlari va diskurs tuzilmasining ayrim jihatlarini o’rganadi. [1,2]

Ushbu ta’rifga ko’ra pragmatika tilning kontekstdagi ishlashini, ma’nolarni vaziyatdan qanday ta’sirlanishini va nutqni turli ijtimoiy kontekstlarda qanday ishlatilishini tushunishga asosiy e’tiborini qaratadi.

Mey (1993) pragmatikaga quyidagicha ta’rif beradi: Pragmatika - insonlar o’rtasidagi jamiyat sharoitlari tomonidan ta’sir ko’rsatilgan muloqotda tilning qanday ishlatilishini o’rganadi. Demak, pragmatika tilning jamiyat sharoitlariga, ya’ni muloqotning ijtimoiy kontekstiga qanday moslashishini o’rganadi. Bu yondoshuvda tilning faqat grammatik yoki sintaktik tuzilishi emas, balki uning muloqotdagi amaliy ishlatilishi ham e’tiborga olinadi. Pragmatisizm tilni kommunikativ vosita sifatida o’rganishga intiladi, unda tilning maqsadi shunchaki axborot uzatish emas, balki o’quvchi yoki tinglovchi bilan samarali va maqsadga yo’naltirilgan muloqot o’rnatishdir.

Huang (2007) pragmatikaning tilni ishlatishga va ma’noga asoslangan holda tizimli o’rganish ekanligini tushuntiradi. Pragmatikaning asosiy sohalari orasida implikatura, presuppozitsiya, nutq aktlari va deyksis kiradi. [1, 2]

Huang tomonidan pragmatikaning tilni ishlatishga va ma’noga asoslangan tizimli o’rganish sifatida ta’rifi, bu sohaning murakkab va ko’p qirrali xususiyatlarini aniq ifodalaydi. Pragmatika tilning faqat grammatik tuzilishini o’rganishdan tashqari, uning ma’nolarini va ular qanday shakllanishini, shuningdek, tilni jamiyatdagi kontekstlarda qanday ishlatishni o’rganadi. “Pragmatika tilshunoslik fanining yangi bir nazariy va amaliy tarmog’idir. U insonning ijtimoiy faoliyatini o’zida aks ettiruvchi nutqiy jarayon, nutq ishtirokchilariga nisbatan kommunikativ niyat, nutqiy vaziyatning ta’siri bilan aloqador masalalarni o’rganadi.” [5,5] Demak, pragmatika ijtimoiy faoliyat bilan bog’liq qilib, har bir nutqiy vaziyatda so’zlashuvchilarning qanday maqsad bilan gaplashayotganini tushunishga yordam beradi. Masalan, biror so’zning yoki iboraning ma’nosi, faqat uni to’g’ri grammatika nuqtai nazaridan emas, balki uning ijtimoiy va kontekstual ta’siri asosida ham aniqlanadi. Bu soha, nafaqat tilshunoslar, balki boshqa ilmiy sohalarda ham (psixologiya, ijtimoiy fanlar) keng qo’llaniladi.

Mazkur tadqiqotda tilshunoslarning pragmatika haqidagi asosiy nazariyalari tahlil qilindi. Ch. Morrisning semiotik yondashuvi, Levinsonning kontekstual ma’no va kommunikativ niyatlar haqidagi qarashlari, shuningdek, tilshunoslar Mey, Yule va Huang tomonidan ilgari

surilgan pragmatika konsepsiyalari tahlil qilindi. Buning uchun ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish metodi qo‘llanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pragmatika tilshunoslikda nafaqat tilning grammatik va sintaktik jihatlarini, balki uning ijtimoiy va kontekstual ishlatilishini ham chuqur o‘rganadi. Bu sohaning asosiy tushunchalari — deiksis, implikatura, presuppozitsiya va nutq harakatlari — tilning interaktiv va kontekstual xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Har bir tushuncha tilshunoslarga tilning jamiyatdagi roli va kommunikatsiya jarayonida qanday ishlashini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Deyksis doirasiga turli ko‘rinishdagi ishoralar kiritiladi. Bu, birinchi navbatda, muloqot ishtirokchilari, ya’ni so‘zlovchi va tinglovchiga ishora bo‘lib, u shaxs olmoshlari vositasida ifodalanadi [6,64]. Deyksis tahlil qilinishida, pragmatika tilning joylashuvi, vaqti hamda mavzusi kabi kontekstual omillarga bog‘liq bo‘lgan so‘zlar va ifodalarning qanday ishlatilishini aniqlashga yordam beradi. Badiiy matnlarda deiksis, ayniqsa voqealarning joylashuvi va vaqtini belgilashda, shuningdek, nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi aloqalarni to‘g‘ri ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Masalan, "hozir" yoki "bu yerda" kabi deyksik ifodalar matnning vaqtini va joyini belgilash orqali voqeaning rivojlanishini aniqroq tushunishga imkon yaratadi.

Implikatura muloqot davomida boshqa narsa deyish orqali bilvosita qo‘shimcha ma’noni nazarda tutishni anglatadi. [2,150] Demak, implikatura suhbatda so‘zlar va iboralar orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilmagan ma’no va maqsadlarni ifodalash imkoniyatini beradi. Bu bilvosita ma’no, odatda, suhbatdoshning kontekstdan yoki ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqqan holda anglash imkonini yaratadi. Implikaturalar muloqotda o‘ta samarali vosita bo‘lib, suhbatdagi noaniqliklarni bartaraf etishda va ma’lumotlarni qisqacha, lekin aniq tarzda yetkazishda qo‘llaniladi.

Tilshunoslikda presuppozitsiya termini ostida muayyan jumla tarkibida bevosita ifodalanmagan, yashirin holda aks etgan ma’no tushuniladi. Presuppozitsiya hodisasi kontekst va nutq vaziyati, so‘zlashuvchilarning kommunikativ niyati kabi elementlarning bir paytda birlashuvi asosida ro‘y beradi. [3,390] Pragmatik yondashuvlarning badiiy matnlardagi ahamiyatini o‘rganish, tilning ijtimoiy va kontekstual aspektlarini tushunishda muhimdir. O‘zbek tilshunosligida pragmatika konsepsiyalarining badiiy matnlar tahlilida qo‘llanilishi, ayniqsa, M. Hakimovning «O‘zbek pragmatik lingvistikasi asoslari» asarida yaxshi namoyon bo‘ladi. Uning asarida tilshunoslikning bu sohasiga oid nazariy va amaliy yondashuvlar badiiy matnlarga qo‘llanilib, o‘quvchi uchun yangi tushunchalar yaratadi.

XULOSA

Shu bilan birga, pragmatika nafaqat tilshunoslik fanida, balki boshqa ijtimoiy fanlarda ham keng qo‘llanilmoqda. U, ayniqsa, tilni o‘rganish va uning jamiyatdagi rolini tushunish uchun zaruriy ilmiy yondashuvdir. Pragmatikaning asosiy tushunchalari, ayniqsa deyksis, implikatura, presuppozitsiya va nutq aktlari, tilning kontekstual ishlatilishini yoritish va badiiy matnlarda uning amaliy qo‘llanilishini ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi. Badiiy matnlar tahlilida

pragmatika yordamida o‘quvchi va tinglovchiga matnning chuqur ma’nolari, nutq ishtirokchilarining niyatlari va ijtimoiy konteksti aniqroq ko‘rsatiladi. Shuning uchun pragmatikaning o‘rganilishi tilshunoslik va badiiy matnlar tahlilida katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Dr. Rita Erlinda, M.Pd. Introduction to English pragmatics. –Indoneziya:2019. – 2 b.
2. F.Sharipova. Implikatura hodisasining “Hamkorlik prinsiplari” asosida tahlili. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 3(12), – 2023.150 b.
3. Gaziyeva.M.M. Presuppozitsiya va implikatsiya xususida. FarDU ilmiy xabarlar. –2022. 390 b.
4. Hakimov.M. X. O‘zbek pragmalingsvistika asoslari. – Toshkent. Akademnashr - 2013, 6 b.
5. Hakimov.M.X. O‘zbek pragmalingsvistika asoslari. – Toshkent. Akademnashr – 2013, 5 b.
6. Болтақулова.Г.Ф. Deiksis hodisasining lingvistik talqini. Academic research in educational sciences. – 2021. 64 b.